

“UzGasTrade” AJ  
yagona aksiyadori  
2022 yil “30” sentabr dagi  
5-sonli qaroriga  
**-ILOVA**

**“TASDIQLANGAN”**  
“UzGasTrade” AJ  
Yagona aksiyadori  
2022 yil “30” sentabr dagi  
5-son qarori bilan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATI  
KUZATUV KENGASHI A’ZOLARI VA KOTIBIGA HAQ HAMDA  
KOMPENSATSIYALAR TO’LASH TARTIBI TO’G’RISIDAGI  
NIZOMI**

**Toshkent – 2022 yil**

## MUNDARIJA:

1.	UMUMIY QOIDALAR.....	3
2.	KUZATUV KENGASHI A'ZOLARI VA KOTIBIGA HAQ TO'LASH.....	4
3.	KUZATUV KENGASHI A'ZOLARI XARAJATLARINI KOMPENSATSIYA QILISH.....	5
4.	KUZATUV KENGASHI VA BOSHQARUV A'ZOLARI FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI SUG'URTALASH.....	6
5.	AXBOROTNI OSHKOR QILISH.....	6
6.	YAKUNIY QOIDALAR.....	6

## I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Jamiyatlar va Jamiyat faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi 166 son “2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, “UZGASTRADE” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) Ustavi, “Kuzatuv kengashi to‘g‘risida”gi Nizomi va boshqa ichki me‘yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur Nizom Jamiyat Kuzatuv kengashi a‘zolari va kotibiga ular o‘z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to‘lash va o‘z vazifalarini bajarish bilan bog‘liq xarajatlarining o‘rnini qoplash uchun kompensatsiya qilish, Kuzatuv kengashi, kotibi va Boshqaruv a‘zolari fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash tartibi, shuningdek to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorini belgilaydi.

3. Kuzatuv kengashi a‘zolari va kotibiga to‘lanadigan haq hamda kompensatsiyalar ularning shaxsiy Jamiyat hisobvarag‘iga (plastik kartasiga) pul mablag‘larini o‘tkazish orqali milliy valyuta so‘mda Jamiyatning joriy xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolariga to‘lanadigan haq xorijiy valyuta ekvivalentida belgilanadi, agar Kuzatuv kengashi a‘zolari xarajatlarni xorijiy valyutada amalga oshirgan bo‘lsa, haq va kompensatsiyalar milliy valyuta so‘mda to‘lov amalga oshiriladigan sanadagi Jamiyatga xizmat qiluvchi bank tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha to‘lanadi.

4. Mazkur Nizomga muvofiq to‘lanadigan haq va kompensatsiyalar, sug‘urta xarajatlari miqdori Jamiyatning yillik biznes-rejasida (budjetida) aks ettiriladi.

5. Mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladigan to‘lovlar miqdori jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini hisobga olmaydi va to‘lovlar to‘liq amalga oshiriladi. To‘lovlar hisoblanishida ularning miqdoriga qonunchilikka muvofiq soliqlar hisoblab chiqiladi va Jamiyat soliq agenti sifatida soliq to‘lovlarini amalga oshiradi.

6. Mazkur Nizomga muvofiq haq va kompensatsiyalar to‘lash uchun hisob-kitob davri kalendar yil hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi a‘zolariga haq ularning kalendar yil davomida amalda bo‘lgan Kuzatuv kengashi a‘zoliqi davri uchun kalendar kunlari hisobida mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashi a‘zoriga saylangan, lekin nomzodi lavozimga kirishishdan oldin qonunchilikka muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kelishish talab etiladigan Kuzatuv kengashining mustaqil a‘zolaridan boshqa a‘zolariga (keyingi o‘rinlarda – Kuzatuv kengashining boshqa a‘zolari) haq va kompensatsiyalar to‘lanishi ularning nomzodi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rozilik xati Jamiyatga kelib tushgan kundan boshlanadi.

Kuzatuv kengashi a'zolidiga saylangan, lekin nomzodi lavozimga kirishishdan oldin qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishish talab etiladigan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga haq va kompensatsiyalar to'lanishi ularning nomzodi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining rozilik xati Jamiyatka kelib tushib, ular bilan shartnoma tuzilgan kundan boshlanadi.

Kuzatuv kengashi a'zolari va kotibiga to'lanadigan haq hamda kompensatsiyalarni hisob-kitob qilish uchun ma'lumotni o'z vaqtida taqdim qilinishi uchun javobgarlik Jamiyat Kuzatuv kengashi kotibiga yuklatiladi.

Kuzatuv kengashi a'zolari va kotibiga haq hamda kompensatsiyalarni to'g'ri hisob-kitob qilish va to'lash uchun javobgarlik Jamiyat Bosh ofisi xodimlariga ish haqi hisoblash va to'lashni amalga oshiruvchi Jamiyatning tegishli tarkibiy bo'linmasi va unga bevosita rahbarlik qiluvchi Boshqaruv a'zosiga yuklatiladi.

7. Kuzatuv kengashi a'zosi va kotibi yozma arizasi bilan unga mazkur Nizomga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan haq va kompensatsiyalaridan to'liq yoki qisman voz kechishi yohud ularni xayriya maqsadlariga yo'naltirishi mumkin.

8. Kuzatuv kengashi a'zolari mazkur Nizomda belgilangan hollardan tashqari o'z vakolatlarini amalga oshirganligi uchun boshqa haq va (yoki) kompensatsiyalarni olishga haqli emas, bunda Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan to'landigan haq va (yoki) kompensatsiyalar mustasno.

## **II. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARI VA KOTIBIGA HAQ TO'LASH**

9. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga o'z vazifalarini bajarganligi uchun haq mazkur Nizomning ularga tegishli qoidalarini inobatga olgan holda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartib va miqdorda to'lanadi.

10. Kuzatuv kengashining har bir a'zosiga kalendar yilining bir choragi uchun to'lanadigan haq miqdori quyidagicha belgilanadi:

Kuzatuv kengashi raisiga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17,6 baravarida;

Kuzatuv kengashining qolgan har bir a'zosiga (mustaqil a'zolaridan tashqari) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 17 baravarida;

Kuzatuv kengashining har bir mustaqil a'zolariga ular bilan tuziladigan shartnomada belgilangan miqdorlarda.

11. Kuzatuv kengashining boshqa a'zolariga o'z vazifalarini bajarganligi va Kuzatuv kengashining faoliyatidagi ishtiroki uchun haq mazkur Nizomda belgilangan tartib va miqdorda to'lanadi.

12. Kuzatuv kengashining kotibiga kalendar yilining bir choragi uchun Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 5 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorni tashkil etadi.

13. Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga Kuzatuv kengashi hamda kotibi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun hisobot choragiga to'lanadigan qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq:

30 foizga kamaytiriladi, agar Kuzatuv kengashining boshqa a'zosi va kotibi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 1/3 va undan kam qismida ishtirok etmagan bo'lsa;

60 foizga kamaytiriladi, agar Kuzatuv kengashining boshqa a'zosi va kotibi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 1/3 qismidan ko'prog'ida ishtirok etib, 2/3 va undan kam qismida ishtirok etmagan bo'lsa;

to'lanmaydi, agar Kuzatuv kengashining boshqa a'zosi va kotibi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 2/3 qismidan ko'prog'ida ishtirok etmagan bo'lsa.

### **III. KUZATUV KENGASHI A'ZOLARI XARAJATLARINI KOMPENSATSIYA QILISH**

14. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlar o'rnini qoplash uchun Jamiyat tomonidan mazkur Nizomning ularga tegishli qoidalarini inobatga olgan holda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari bilan tuzilgan shartnomalarda belgilangan tartib va miqdorda kompensatsiya qilinadi.

15. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari xarajatlari o'rnini qoplash uchun kompensatsiyalarning eng ko'p miqdori quyidagicha belgilanadi:

a) belgilangan ish joyigacha va doimiy ish joyidan qaytish uchun yo'l haqiga (shu jumladan, transportda yo'lovchilarni majburiy shaxsiy sug'urtalash uchun sug'urta polisi, yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar to'lovi va h.k.) - quyidagi asl yo'l hujjatlari bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar miqdorida:

havo transporti orqali – tejamli-klass tarifi bo'yicha, Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari uchun uch soatdan ko'proq uchish sharoitida biznes-klass tarifi bo'yicha;

temir yo'l transporti orqali – biznes-klass vagonida;

avtomobil transporti orqali – yig'ilish o'tkaziladigan aholi yashaydigan punktdagi transfer yoki bunday aholi yashaydigan punktga eng yaqin aeroport (temir yo'l vokzali), yig'ilish o'tkaziladigan joygacha mehmonxona va qaytish yo'l xarajatlari;

b) tadbir o'tkaziladigan davrda, shu jumladan Kuzatuv kengashi a'zosining kelish/ketish kuni 5 yulduzli mehmonxonaning "standart" klassidan yuqori bo'lmagan turar-joyini ijaraga olish bo'yicha – tegishli asl hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy xarajatlar miqdorida.

Chet eldan keladigan Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi iltimosiga asosan Jamiyat mehmonxonada turar-joyini oldindan band qilib qo'yishga va Jamiyat mablag'lari hisobidan ijara haqini to'lashga haqli.

16. Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolari sarflangan xarajatlar kompensatsiyasini olish uchun Jamiyat Kuzatuv kengashi kotibiyatiga bunday xarajatlarni tasdiqlovchi asl hujjatlar (asl bilet/elektron bilet, chiqish taloni, mehmonxonada yashash uchun hisobvaraqa va h.k.) ilova qilingan ariza yuboradi.

17. Jamiyat Kuzatuv kengashi kotibiyati mazkur Nizom 29-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay mazkur Nizom 6-bandida belgilangan Jamiyat Boshqaruvi a'zosiga sarflangan xarajatlarni kompensatsiya qilish to'g'risida bildirishnomani olingan hujjatlar ilova qilingan holda yuboradi.

18. Jamiyat tomonidan kompensatsiyalar to'lovi Kuzatuv kengashi kotibiyatidan tegishli hujjatlar olingan sanadan e'tiboran o'n ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

19. Kuzatuv kengashining boshqa a'zolariga Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan kompensatsiyalar to'lanishi mumkin.

#### **IV. KUZATUV KENGASHI VA BOSHQARUV A'ZOLARI FUQAROLIK JAVOBGARLIGINI SUG'URTALASH**

20. Jamiyat o'z mablag'lari hisobidan Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a'zolari fuqarolik javobgarligini sug'urtalashi mumkin.

21. Sug'urta hodisalari ro'yxati, sug'urta summasi miqdori, zararni qoplash tartibi va boshqa muhim shartlar Jamiyat va sug'urtalovchi o'rtasida tuzilgan sug'urta shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

22. Qonunchilik talablari doirasida javobgarlikni sug'urtalash to'g'risida qaror qabul qilish, sug'urta limitlarini va sug'urtalovchini belgilashni tashkil etish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

#### **V. AXBOROTNI OSHKOR QILISH**

23. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga to'langan haq to'g'risidagi axborotni qonunchilikka muvofiq oshkor qilinishini ta'minlaydi.

#### **VI. YAKUNIY QOIDALAR**

24. Mazkur Nizom Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

25. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Jamiyat Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi qarori bilan kiritiladi.

26. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

27. Mazkur Nizomda nazarda tutilmagan qoidalar amaldagi qonunchilik bilan tartibga solinadi.

28. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan taqdirda, mazkur Nizomga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgunga qadar amaldagi qonunchilik talablariga rioya etiladi.

29. Kuzatuv kengashi a‘zolari va Jamiyat mazkur Nizomning ijrosi bilan bog‘lik yuzaga keladigan nizolar yoki e‘tirozlarni muzokaralar orqali qisqa muddatlarda hal qilish maqsadida imkon darajada barcha choralarni ko‘rish majburiyatini oladilar. Kuzatuv kengashi a‘zosi va Jamiyat o‘rtasida o‘zaro kelishuv asosida hal qilinmagan mazkur Nizomga tegishli har qanday nizo qonunchilikda belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.